

QORAQALPOQ XALQINING ETNOGRAFIYASI

Kudaybergenova Muhabbat

Qoraqalpoq davlat universiteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14625643>

Qoraqalpoqlar tug'ilib o'sgan yurt, ular ajdodlarining haqiqiy vatani azal-azaldan janubiy, janubiy-sharqiy va janubiy-garbiy Orol bo'yi yani hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi joylashgan yer bolgan. Qoraqalpoqlar aynan shu joyda ya'ni Orol va Amudaryo boylarida vujudga kelganlar, garchi keyinchalik vaqti-vaqti bilan alohida-alohida qismlarga bo'linib, boshqa o'lkalarga ko'chib ketgan bolsalarda, ammo oxir oqibatda ular o'z ajdodlari vatanlariga qaytganlar.

Dastlab Qoraqalpoqlar bir necha qabilalar uyushmasidan tarkib topgan bo'lib, qadimdanoq yaxlit mit bo'lib shakillana boshlagan. Ularning eng qadimiy ajdodlari, eramizdan avvalgi birinchi asrlarda Orolning janubiy sohillarida o'rnashgan massaget qabilalaridir. Ular orasidagi apasioq qabilasi qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakillanishida katta rol oynagan. Bu qabila dexqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Professor T.Jdankoning fikricha, massagetlar xayotiga singib ketgan onalik davriga oid an'analar mashhur qoraqalpoq dostoni "Qirq Qiz"da yaqqol namoyon bolgan. Bu doston hozirgi qoraqalpoqlarni ularning ajdodlari bilan bevosita bog'laydi.

Apasioqlar davrida Sirdaryo etaklarida Augasilarqabilasi yashagan. Bu ikki qabila ortasida mustahkam aloqa mavjud bolgan.

Eramizdan avvalgi birinchi asr bilan eramizning to'rtinchi asrigacha bo'lgan oraliq davrda Orol qirgoqlariga sharqdan gunlar kela boshlagan. Bulardan tashqari oltinchi va on ikkinchi asrlarda apasioqlar negizida Pecheng ittifoqi vujudga keldi. Sirdaryo etaklarida esa gun va turklarning aralashib ketishlari natijasida augasilar negizida o'g'oz ittifoqi vujudga keldi.

Bijanak (pecheng)larning vujudga kelishi qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakillanishining ikkinchi bosqichdir. Bijanaklarning yerlari toqqizinchi asrning oxiriga kelib Amudaryo etaklaridan boshlab g'arb tomonga Orol qirgoqlaridan Ural va Volga daryolari sohilarigacha bo'lgan ulkan kengliklarni qamrab oldi. Xalq orasida yuruvchi afsonalarga qaraganda, Qiyot (hozirgi Beruniy) shaxri uning poytaxti bo'lgan.

Aksaryat kopchilik o'gizlar o'zlari bosib olgan hozirgi Turkmaniston, Eron va Turkiya yerlarida mustahkam o'rnashib qolganlar. Birinchi navbatda ular turkman xalqining shakillanishiga asos soldilar. So'ng turk va ozar xalqlarining kelib chiqishiga ham tasir etdilar. O'gizlarning bir qismi begona olkalarga ketishini istamay, Amudaryo etaklarida yashab qoldilar. Orol bo yidagi sharqiy bijanaklar bu yerda qolgan o'gizlar bilan ittifoq tuzib, ko'plab siyosiy voqealarda ishtirok etdilar.

S.Tolstov, P.Ivanov, T.Jdankokabi taniqli tarixchilarning fikricha sharqlik bijanaklar yeriga Sibr va Irtish tomondan qipchoqlar bostirib kiradilar. Bosqinchi (qipchoqlar)ning bir qismi sharqiy bijanaklar bilan aralashib ketgan. Xozirgi qoraqalpoq urug'larida qipchoq urugining borligi ham shundan. Mashhur tarixchi Abul Fazl Beyxoqiyning "Tarixi Beyxoqiy" asarida aytiladiki, on birinchi asrning ortalarida Xorazm shoxining turk gvardiyachilaridan birining qo'mondoni ismi "Qalpoq bolgan. P. Ivanov shunga asoslanib bu yerda gap sarkarda haqida emas, balki, uning boysunuvidagi qoraqalpog jangchilar haqida borayotganini

takidlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki goragaloglar osha davrlardayog, balki shu asosda tarixiy manbalarga "qorabo'rkililar", "qoraqalpoqlar" nomi bilan kirganlar.

Chingizxonning 1218-1221-yillaridagi Xorazmga yurishi Orol, Amudaryo va Sirdaryo sohillari aholisi boshiga ko'p ofatlar oib keldi. Xorazmning tub yerli aholisi bosqinchilarga kuchki qarshilik korsatdilar, mogillar esa mard va jasur himoyachilarni misli ko'rilmagan darajada mahv etdilar.

■ On to'rtinchi asrning oxirlari va o'n beshinchi asrning boshlaridagi Amir Temur hujumi natijasida Qizil O'rda yemirilib unin uning o'rnida bir nechta davlat vujudga keldi. 1397-yilda Sharqiy yevropaning bepoyon cho'llarida Edigey boshchiligidagi Nog'ay (Mangit) xonligi tashkil topdi.

■ On beshinchi asrning birinchi yarmida Nog'ay xonligining sharqiy tomonida Abilxayr boshchiligidagi O'zbek xonligi vujudga keldi. On beshinchi asrning ikkinchi yarmigacha qoraqalpoqlar xam shu xonlikka qaraganlar. O'zbek va Nogay xonliklari aholisi asosan bir urug'dan bo'lganlar. Professor N.Baskakovning yozishicha, ularning hammasi turk tilining janubiy-sharqiy shevasida yanu zamonaviy qoraqalpoq, qozoq va nog'ay tillarida so'zlashganlar.

On beshinchi asrning ikkinchi yarmidanon oltinchi asrning ikkinchi inchi yarmigacha bolgan davrda qoraqalpoqlar Nog'ay xonligi tarkibida boldilar. 1556-yilga kelib Rossiya, Astraxan xonligini bosib oladi. Shundan song nog'ay morz(knyaz)lari ortasida o'zaro nifoq va janjallar boshlanadi. Buning ustiga xonlikda ikki yil davomida ekinlar bitmay qoldi. Oqibatda ocharchilik boshlandi. Bu ofatlar tufayli xonlik xududida istiqomat qilayotgan xalqlarning kop qismi boshqa o'lkalarga ko'chib ketdi. Qoraqalpoqlar ham Nog'ay xonligini tark etib, o'zlarining Amudaryo bo'ylaridagi avvalgi yerlariga qaytish imkoniyati bo'lmaganligidan Sirdaryo sohillariga kelib joylashdilar. Osh paytda Amudaryo sohillari suvsizlikdan hamon qaqrog edi. Faqat o'n yettinchi asrning boshlariga kelib, Amudaryo ozining eski o'zaniga qaytadi va suvini Orol dengiziga quva boshlaydi.

Osha davrdan boshlab qoraqalpoqlar daryoning ikki sohili boylab yastangan qadimiy joylariga qaytib, yerlarini yana boshqatdan ozlashtirishg'a kirishdilar. O'n yettinchi asrda qoraqalpoqlar Xorazmga o'tgan ko'chmanchiz o'zbeklar bilan birga Xiva xonligining shimolida Orol(aran) davlatini boshladilar. Orol qoraqalpoqlari va barpo eta o'zbeklar o'n to'qqizinchi asrning boshlarigacha Xiva xonligidan xoli yashaganlar. Pirovorida shunu aytish mumkinki, Amudaryo va Orol sohillari qoraqalpoqlar azal-azaldan yashab kelgan va ota-bobolar yurtidir.

References:

1. Камал Мамбетов. Қарақалпақлар тарийхы. Нөкис. «Қарақалпақстан» 1993.
2. С.Камалов. «Халк сўзи» мақоласи 1993 й.
3. Р.Х. Шерниязов. [Жанубий орол буйидаги сўнги орта асрларда юз берган этносиёсий ва этномаданий жараёнлар хорижий тадқиқотчилар изланишларида.](#) Science and innovation, 2024 - cyberleninka.ru